



KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA SAVOD O`RGATISH (O`QISHNI VA YOZISHNI) METODIKASI

Maxsumova Fotima Sayfutdin qizi

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2-fakulteti
Maktabgacha va boshlang`ich ta'limda ingliz tili yo`nalishi
2-bosqich talabasi.*

Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova

Annotatsiya: Barchamizga ma'lumki xorijiy tillarni jumladan ingliz tilini o`rganishda ko`pchilik til o`rganuvchilarida biroz qiyinchilliklar uchramoqda. Asosan writing va reading (o`qish va yozish) ko`nikmasini oshirishda ko`plab muomolarga duch kelinmoqda. Ushbu maqolada kichik yoshdagi o`rganuvchilarga o`qish va yozish ko`nikmalarini rivojlantirish haqida aytib o`tildi.

Kalit so`zlar: Savod o`rgatish metodika, o`qish malakasi,yozish ko`nikmasi, og`zaki nutq,interfaol metodlar.

Hozirgi kunda bolalarga savod o`rgatish davomida darslarda interfaol usullardan foydalanish katta ahamiyatga ega hisobladi.Husnixatni o`rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o`rganuvchilarning chiroyli yozish malakasini rivojlantirish va yozuv daftarlari bilan ishlash ko`nikmasini shakllantiradi.Ifodali o`qish bu bolalarning ravon aniq va chiroyli o`qish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Kichik yoshdagi o`rganuvchilarga yozish ko`nikmasini shakllantirish uchun turli xil metodlar mavjud.

Birinchidan, kuniga 15 daqidadan ortiq bolalarni shug`ullanotirish kerak. Yozuv – qo'llarning mutanosiblikdagi harakati, rivojlangan ko'rish xotirasi, diqqat va o'tirib ishslashni talab etadigan murakkab ko`nikma.Yosh bolalarga birdan o`qishni va yozishni o`rgatish qiyin jarayon hisoblanadi.Shu bir qoidaga rioya qilishimiz kerak:ozroq yozamiz -dam olamiz.

Yozishga tayyorlikni quyidagicha tekshirish mumkin:

Bolaga bir varaq qog'oz berib, biror narsa chizishni taklif qilish.

Rasmning bir qismini bo'yashni so'rash.

Agar bola qog'ozni doimiy ravishda aylantirib, chiziqlar yo'nalishini bazo'r o'zgartirsa, demak, u harflarni yozishga hali tayyor emas.



Agar bolalar harflarni yozishni o`rganishni xohlashmasa ularni majburlamaslik kerak aksincha turli xil o`yinlar va xotirani rivojlantiradigan mashqlar orqali shug`ullantirish lozim.[¹].

Running dictation (yugurish diktanti) o`yini klassik ESL o`yinidir, chunki u qiziqarli bo`lib, bitta mashg`ulotda barcha 4 ta ko`nikmani qamrab oladi va u talabalarni, til o`rganuvchilarni yoshlarni qamrab oladi. Ushbu o`yin o`quvchilarni harakatlanishini va faol bo`lishlikni ta`minlaydi.. Bundan kattalar, universitet talabalari, bolalar - kim bo`lishidan qat'iy nazar barcha uchun foydalanishingiz mumkin! O`yining vaqt cheklangan mashg`ulot hisoblanib , bunda o`quvchilar juft bo`lib ishlaydi (bitta o`quvchi o`tiradi va bitta o`quvchi yuguradi) sinf bo`ylab berilgan bitta matn, so`z, jumla yoki savollarni iloji boricha tezroq to`g`ri yozib olish. Yuguruvchilar matnning bir qismini o`qiydilar, uni yodlaydilar va tezda yozuvchi sherigiga boradilar. Keyin ular yozuvchiga nima yozish kerakligini tushunib, eslab qolishiga ishonch hosil qilish uchun o'sha matn qismini pichirlashadi. Yuguruvchi ko`proq matn olish uchun berilgan matni tezroq o`qib tushunib olishlari kerak bo`ladi. So`zlar tartib bilan yozilishi kerak. Bu o`yinni jamoa bilan ham o`ynalsa o`yin juda ham qiziqarli bo`ladi. Qaysi jamoa tez va to`g`ri matn yozsa shu jamoa go`lib bo`ladi. Quyidagi rasmda matnlarga namuna berilgan.

**READING PASSAGE
GRADE 1**

ORANGE



This is an orange. It is a sour and sweet fruit. It is round in shape, orange coloured and rich in vitamin C. It is a juicy fruit that has pulp inside it. This fruit is widely eaten in winter. The skin of orange cannot be eaten. We can make tasty juice out of it.



First Day in School

I am excited for my first day in school. I want to meet my classmates. I want to draw and write. I love to sing and dance. I hope my teacher is kind. I have a lot of things in mind but I am so excited to have fun.

Crazy sentence game.(Ajoyib gap tuzish o`yini) bu o`yin asosan boshlang`ich (elementary) va pre-intermediate(o`rta darajadagi) til o`rganuvchilarga moslashgan bo`lib bu juda qiziqarli va foydali o`yindir. Bu o`yinda quti ichiga fe'llar ikki xil shaklda va rangda yozilgan bo`ladi. Ya`ni yaxshil rangda yozilgan fe'llar: gaplar, va birikmalar tuzishga oson hisoblanadi. Ko`k rangda yozilgan fe'llar: ozgina murakkabroq hisoblanib, jumlalar va gaplar tuzishga qiyinroq hisoblanadi. O`yin



quydagicha boshlanadi: sinf o‘quvchilari 2 guruhga bo‘linadi. Har bir guruhdan bir nafardan o‘quvchilar chiqib, ko‘zlarini yumgan holda ingliz tilida fe’llar tanlaydilar va tanlagan fe’llariga gaplar tuzishadi. Murrakab darajadagi fe’llarga 2 ball, oddiy darajadagi fe’llarga 1 balldan beriladi. Topshiriqni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ushbu vaqt ichida qancha ko‘p birikmalar va xatosiz gaplar tuzgan guruh o‘quvchilari g‘olib hisoblanadi va g‘olib bo‘lgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.[²].

Xulosa qilib aytganda tillarni o`rganishda interfaol va yangi ped texnologiyalardan foydalanish juda ham foydali hisoblanib, ushbu usullar bolalarda til o`rganishga bo`lgan motivatsiyasini oshirishga va ularda tanqidiy, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarni shakllantirishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanigan aadabiyotlar:

1. <https://kun.uz/uz/news/2018/09/21/kandaj-kilib-bolani-ezisga-urgatis-mumkin#!>
2. Writing lesson: Stretching a Sentence and the Verb Shaker | Blog de Cristina <https://www.cristinacabal.com/?p=2993> .
3. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases (2019).
4. Zubaydova Nilufar Nimatillaeva, The importance of teaching vocabulary (2019).
5. <https://ahaslides.com/uz/blog/17-fun-games-to-play-in-class-all-grades/?ved=2ahUKEwjs5IHA6tr4AhXiyDgGHeBIDZwQFnoECAwQAQ>.